



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAMANGAN VILOYATI HOKIMINING QARORI

Namangan sh. Istiqlol ko'chasi 57.

2023 - yil 3 - may

165-6-0-Q/23

Namangan viloyati hokimligi

Norin tumanidagi "Marg'izor" oilaviy shifokorlik punkti faoliyatini tashkil etish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida"gi Qonunining 6-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Birlamchi tibbiy-sanitariya yordamini aholiga yaqinlashtirish va tibbiy xizmatlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2022-yil 25-apreldagi PQ-215-son qarori 2-bandi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoliyatiga mutlaqo yangi mexanizmlarni joriy qilish va sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 12-noyabrdagi PF-6110-son Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 25.04.2022-yildagi 211-son qarori bilan tasdiqlangan "Yo'l xaritasi"ning 73-bandi ijrosi bo'yicha viloyatda 2021-2023-yillarda oilaviy shifokorlik punktlari va oilaviy poliklinikalarni bosqichma-bosqich tashkil etish, Norin tumanida aholiga ko'rsatilayotgan birlamchi tibbiy sanitariya yordami xizmatini yanada yaqinlashtirish hamda viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasining 2023-yil 20-fevraldagi 08004-son taklif xatini inobatga olib, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasining "Norin tuman Marg'izor oilaviy shifokorlik punkti faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 2023-yil 20-fevraldagi 08004-son taklifi, Sog'liqni saqlash vazirligining 2022-yil 19-yanvardagi 09-07/1341-son xati bilan oilaviy shifokorlik punktini tashkil etish masalasi kelishilganligi ma'lumot va asos uchun qabul qilinsin.

2. Norin tumani, Toshqin MFY, Farovon ko'chasi, 1-uyda joylashgan sobiq "Marg'izor" qishloq vrachlik punkti bino va inshootlari o'rnida Norin tuman tibbiyot birlashmasiga qarashli 50 qatnovga mo'ljallangan "Marg'izor" oilaviy shifokorlik punkti tashkil etilsin va faoliyatiga ruxsat berilsin.

3. Mazkur oilaviy shifokorlik punktining pochta manzili Norin tumani, Toshqin MFY,

Farovon ko‘chasi, 1-uy etib belgilansin va unga (“Saodat” MFYning 2 416 nafar, “Toshqin” MFYning 3 376 nafar, “Shohidon” MFYning 2 773 nafar, “Qo‘rg‘oncha” MFYning 2 314 nafar, “Marg‘izor” MFYning 2 793 nafar, “Kemaboshi” MFYning 3 072 nafar) jami 16 744 nafar aholi birlashtirilsin.

4. Sog‘liqni saqlash boshqarmasi (A.Iminov):

“Marg‘izor” oilaviy shifokorlik punktining nizomini ishlab chiqib, Davlat xizmatlari markazida davlat ro‘yxatidan o‘tkazsin;

ish jarayonlarini tasdiqlangan Nizom talablari asosida amalga oshirilishini qat‘iy nazoratga olsin;

Moliya bosh boshqarmasi (Z.Baxriddinov) bilan birgalikda oilaviy shifokorlik punktining Nizomiga asosan shtatlar jadvalini belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazish choralari ko‘rsin;

ishchi-xodimlarni oilaviy shifokorlik punktida to‘liq ish bilan ta‘minlasin.

5. Norin tumani hokimligi (J. Nurmatov):

“Marg‘izor” oilaviy shifokorlik punktini mahalliy byudjet mablag‘lari hisobidan zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar bilan jihozlash uchun zarur bo‘ladigan mablag‘larni ajratsin.

6. Viloyat ichki ishlar boshqarmasi (Sh. Aliyev):

oilaviy shifokorlik punkti tashkil etilishi munosabati bilan gerbli muhr va tamg‘a tayyorlashga belgilangan tartibda ruxsat berilishini ta‘minlasin.

7. Mazkur qaror “Namangan haqiqati” va “Namanganskaya pravda” gazetalarida e‘lon qilinsin hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e‘lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

8. Qarordan norozi bo‘lgan shaxslar belgilangan tartibda tegishli vakolatli organga yoki sudga shikoyat qilish huquqiga ega.

9. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari G‘.Murodxujayev zimmasiga yuklansin.

Viloyat hokimi



Sh.Abdurazakov